Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqlim o‘zgarishini suv omborlarning gidravlik va gidrologik rejimiga ta’sirini baholashga oid ko‘plab tadqiqotlar Respublikamiz va bir qancha xorijiy davlatlarda olib borilgan. Suv omborlarning gidravlik va girologik rejimlarini o‘rganish va ulardagi o‘zgarishlarni o‘rganish yo‘nalishdagi tadqiqotlar S. Aloui, S.L. Beharry, R.K. Jaiswal, X. Lui, T. Lui, M. Yasir, T. Duc Dang, X. Meng, C. Teutschbein, T. Thomas, W. Tian, J. Yao, A. Ashu, R. Allan, I. Bano, O. Barbosa, A. Bliss, F. Choukri, D. Frame, Y. Grusson, S. Hagesmann, C. Li, U. Mandal, D. Maraun, D. Molden, hamda respublikamiz olimlari S.R. Ibatullin, F.K. Khikmatov, M.R. Bakiyev, I.R. Ikramova, A.M. Arifjanov, A.T. Salohiddinov, F.A. Gapparov, I.A. Akhmedxojayeva, Sh. Rahmatullaev, S. Usmanov va boshqa qator olimlar tomonidan olib borilgan va ma’lum ijobiy natijalarga erishilgan.

Shuningdek, iqlim o‘zgarishi bashorat qilish va uning tabiiy resurslarga ta’siri baholash va unga moslashish yo‘nalishidagi tadqiqotlar J.Hansen, M.E.Mann, C.L.Quere, V.Ramatan, S.Seneviratne, K. Hayhoe, D.Chen, P.Zhai, A.Yatagai, G.J. Oldenborgj hamda respublikamiz olimlari B.Nishonov, P.Pulatov, A. Gafurov, M.Sarikulov, S.Abdullayeva, A.Hamidov, N.Hakimov, S.Turaeva va boshqa qator olimlar tomonidan olib borilgan va iqlim o‘zgarishi ta’sirlarini yumshatish va unga qarshi kurashish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Olib borilgan ilmiy izlanishlarda iqlim o‘zgarishi va uning suv resurslari miqdori, suv omborlarining gidrologik rejimiga ta’siri bo‘yicha gidrologik hisoblar amalga oshirilgan. Natijada suv omborlarning ta’minlanganligi yillar, oylar davomida suv miqdorini o‘zgarishini baholash, suv omborlarining ishlash rejimini ishlab chiqish, suv balansini hisoblash usullari ishlab chiqilgan. Iqlim o‘zgarishi suv omborlarining gidravlika va gidrologik rejimlariga ta’sirini baholashda zamonaviy usullarni qo‘llash, ishonchli baholovchi modellardan foydlanib baholash kelajakdagi iqlim senariylarida suv resurslarini barqaror boshqarish masalalari o‘z yechimini kutib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajargan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №3-sonli “Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini oqilona boqarish, ulardan suv tejamkor texnologiyalar asosida foydalanish va sug‘oriladigan erlarning ekologik-

meliorativ holatini yaxshilashning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish” (2020-2023), № 3,1-sonli “Irrigatsiya tizimlari, gidrotexnik inshootlar va suv omborlarida gidravlik va gidrologik jarayonlarni informatsion texnologiyalar asosida baholashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” (2020-2023),

№ 3,3-sonli “Irrigatsiya tizimlari, gidrotexnik inshootlar va suv omborlarida suv resurslaridan samarali foydalanishning gidravlik va gidrologik jihatlarini baholashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” (2024-2026) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv omborlarining gidravlik va gidrologik rejimiga bo‘lgan ta’sirni baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Iqlim o‘zgarishini suv omborining gidravlik va gidrologik rejimiga ta’sirini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning analitik tahlili;

Suv hajmlarini baholashda iqlim model (Coupled Model Intercomparison Project 6 (CMIP6)) ma’lumotlarini moslashtirish (bias correction) va tahlil qilish;

Daryo havzasidagi iqlim o‘zgarishini suv omborning gidravlik va gidrologik rejimiga ta’sirini SWAT model orqali baholash;

Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv omborlarning suv hajmlarini o‘zgarishini baholash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi Hisorak suv ombori olingan.

Tadqiqot predmeti yog‘ingarchilik shakllari va intensivligining o‘zgarishi, havo haroratining ko‘tarilishi, qor-qor suvining erish dinamikasi, suv oqimining mavsumiy va yillik taqsimoti, suv yig‘ilishi va chiqarilishi balansining o‘zgarishi, omborlar to‘lish va bo‘shash (irrigatsion) rejimlari, iqlim senariylari asosida suv omborlarining ekspluatatsiya samaradorligiga, suv resurslarining mavjudligi va ularning taqsimlanishiga ta’sir etuvchi omillar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida mavjud ma’lumotlarni trend tahlili, iqlim model ma’lumotlarini xatoliklarini to‘g‘irlash (bias correction), kalibratsiya va validatsiya, GAT texnologiyalari, statistik tahlil hamda gidravlika va gidrologik modellashtirish (SWAT modeli orqali) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

machine learning algoritmlaridan foydalanib, gidrologik model ma’lumotlarini kalibratsiya va validatsiya qilish uchun dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan;

CMIP6 global iqlim o‘zgarishi senariylarining (SSP1-2.6 va SSP5-8.5) prognoz ma’lumotlari ilk bor Oqsuv suv daryo havzasi uchun statistik bias correction usuli yordamida moslashtirilgan;

iqlim o‘zgaruvchanligini inobatga olib, suv omborlarining gidravlik va gidrologik rejimlarini o‘zgarishini bashorat qilishda SWAT model parametrlari takomillashtirilgan;

turli suvlilik davrlar uchun takomillashgan SWAT modeli asosida Hisorak suv omborining ishlash rejimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari

Iqlim model ma’lumotlarining xatoliklarini to‘g‘irlovchi (bias correction) dasturiy ta’minot ishlab chiqilgan;

Iqlim o‘zgarishini suv resurslariga bo‘ladigan ta’sirlarini baholash uchun python dasturlash tili yordamida gidrologik model ishlab chiqilgan;

Iqlim o‘zgarishing suv omborlarning gidravlik va gidrologik rejimiga ta’siri baholash usuli takomillashtirilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yechimlarni ishlab chiqishda umum qabul qilingan gidravlik qonunlar va modellashtirish usullarga asoslanganligi, olingan natijalar amalda statistik ko‘rsatgichlar bilan tahlil qilinganligi va natijalar ishonchlili yuqori ekanligi hamda boshqa olimlar tomonidan olingan ma’lumotlar bilan taqqoslab tekshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati python dasturlash tilida iqlim model ma’lumotlarini xatoliklarni to‘g‘irlovchi (bias correction) dasturiy ta’minot ishlab chiqish asosida suv omborlaridagi iqlim o‘zgarishi tahlil aniqligi oshirildi.

Shuningdek, iqlim o‘zgaruvchanligini inobatga olib, suv omborning gidravlik va gidrologik rejimiga ta’siri baholash uchun zarur bo‘lgan SWAT model parameterlari takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqlim o‘zgarishini suv omborlarining gidravlik va gidrologik rejimiga ta’sirini modellashtirish asosida kelajakda suv omborlariga keladigan suv sarfi, suv omborlardagi suv sathini o‘zgarishini hamda ko‘p suvlilik va kam suvlilik davrlarni oldindan aniqlash orqali suv omborlarni boshqaruvini yanada samaraliroq tashkil qilish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Iqlim o‘zgarishini suv omborlarining gidravlikva gidrologik rejimiga ta’sirini baholash” bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot natijasi asosida:

suv ombor havzasi uchun iqlim o‘zgarishi model ma’lumotlari tahlil qilindi va ulardagi xatoliklar statistik usul (bias correction) dan foydlanib to‘g‘irlandi (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 21 dekabr 02/13-5019 sonli ma’lumotnomasi). Natijada suv ombor havzasi bo‘yicha mavjud iqlim model ma’lumotlar va ularning tahlil aniqligi oshirildi.

suv omborlarining gidravlik va gidrologik rejimlarini o‘zgarishini bashorat qilishda model parametrlari takomillashtirildi (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 21 dekabr 02/13-5019 sonli ma’lumotnomasi). Natijada iqlim o‘zgarishini suv omborlarining gidravik va gidrologik rejimiga ta’siri baholash aniqligi oshirildi.

turli suvlilik davrlar uchun takomillashgan SWAT modeli asosida suv omborining ishlash rejimi ishlab chiqildi (O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 21 dekabr 02/13-5019 sonli ma’lumotnomasi). Natijada iqlim o‘zgarishini keskinlashuvi jarayonida suv omborning ishlash samaradorligi oshirildi.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarinining e’lon qilinishi. Dissertatsiya ishlari bo‘yicha 9 ta chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda

9 ta, jumladan 5 ta Respublika va 2 ta xorijiy konferensiya hamda jurnallarda nashr qilingan, 2ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dessertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalalardan iborat va dissertatsiya ishi 93 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari xamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Iqlim o‘zgarishini suv omborining gidravlik va gidrologik rejimiga ta’sirini baholash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning analitik tahlili**” deb nomlangan birinchi iqlim o‘zgarishini suv omborlarining gidravlik va gidrologik rejimlari ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni ko‘rib chiqishga va ushbu ta'sirlarni baholash uchun ishlatiladigan modellashtirish yondashuvlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Birinchi navbatda suv omborlari nima uchun muhimligini va yog'ingarchilik, evapotranspiratsiya, qor/muzlik dinamikasi va oqimlarni ekstremal o‘zgarishi, ularni saqlash va boshqaruv xavflarni va ularni ta’sirini aniqlash va baholash uchun modelga asoslangan tahlil muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot tahlilining asosiy xulosasi shundan iboratki, SWAT modeli suv omborlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotida eng asosiylaridan biri bo‘lib xizmat qilib kelmoqda, jumladan: ushbu bobda Eron (Zayandeh-Roud), Xitoy (Yangtze va Yalong), Tailand (Mun), Hindiston (Subarnarekha, Narmada), Marokash (Tleta), Yaponiya (Sagami), Kanada (Shellmouth), Portugaliya (Vigia/Monte Novo), Koreya (Osan), Karib dengizi (Navet) va boshqalarda olib borilgan tadqiqotlarda kalibirlash/tasdiqlash (ko‘p hollarda SWAT modelidagi SUFI-2) va iqlim hamda boshqaruv senariylardan foydalanilgan.

Shuningdek, adabiyot tahliliga ko‘ra, aksariyat tadqiqotlarda iqlim senariylari prognozlarining RCP (masalan 2.6/4.5/8.5) foydalanilgan bo‘lsa, qolgan tadqiqotlarda ko‘proq CMIP6 SSP (ayniqsa SSP1-2.6 va SSP5-8.5) senariylari va ularning prognozlaridan foydalanilgan, bu iqlim o‘zgarishi, ularni ta’siri va havflarini yana aniqroq baholash imkonini yaratadi. Bu yerda umumlashtirilgan SWAT+senariy tadqiqotlarining olib borishdagi tendensiya shuni ko‘rsatadiki, SWAT va senariyga asoslangan metodologiya ushbu tadqiqot tanlab olindi, chunki ular keng qo‘llanilgan, kalibrlash/tasdiqlash uchun shaffof, CMIP6 SSP senariylari bilan ishlash orqali iqlim o‘zgarishi va ularning suv omborlarning ishlash rejimlariga ta’sirini baholash va ishlash rejimini optimallashtirishga imkoniyat yaratadi.

Dissertatsiyaning “**Suv hajmlarini baholashda iqlim model (Coupled Model Intercomparison Project 6 (CMIP6)) ma’lumotlarini moslashtirish (bias correction) va tahlil qilish**” mavzusidagi ikkinchi bobida tadqiqot hududida iqlim

model ma’lumoti xatoliklari to‘g‘irlandi va iqlim model hamda Uzgidromet ma’lumotlari uning tahlili olib borildi. 1989 yildan 2023 yilgacha o‘rtacha harorat yildan-yilga sezilarli tebranishlarni ko‘rsatadi, ba’zi yillarda keskin pasayish yoki o‘sish kuzatiladi. Biroq, umumiy tendentsiya, yuqoriga ko‘tarilgan qizil chiziq bilan ko‘rsatilgandek, vaqt o‘tishi bilan o‘rtacha haroratning asta-sekin o‘sishini ko‘rsatadi. Trend chizig‘ining qiyaligi o‘rganish davrida haroratning yiliga taxminan 0.041°C ga o‘rtacha yillik o‘sishini ko‘rsatadi. Moviy chiziq yog‘ingarchilikning yildan-yilga sezilarli o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi, ba’zi yillarda cho‘qqilar (masalan, 1200 mm dan yuqori) va boshqalarida keskin pasayish (masalan, 600 mm dan past) kuzatiladi. Ushbu o‘zgaruvchanlikka qaramay, qizil tendentsiya kuzatilgan davrda yillik yog‘ingarchilikning biroz pasayish tendentsiyasini ko‘rsatadi. Trend chizig‘ining qiyaligi (-1,6216) yog‘ingarchilikning yiliga o‘rtacha 1,62 mm ga



kamayishini ko‘rsatadi.

1-rasm. 1989 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan yillardagi o‘rtacha yillik harorat tendentsiyasi (Uzgidromet)

2-rasm. 1989 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan yillardagi o‘rtacha yillik yog‘ingarchilik tendentsiyasi (Uzgidromet).

Yuqori chap panelda SSP1-2.6 stsenariysi uchun harorat ma’lumotlari ko‘rsatiladi. U kuzatilgan haroratni (yashil), modellashtirilgan haroratni (qizil) va



noto‘g‘ri tuzatilgan haroratni (ko‘k) ko‘rsatadi. O‘rtacha moyillik 0,92 °C dan 0,00°C gacha yaxshilanadi. Ildiz o‘rtacha kvadrat xatosi (RMSE) 2,24 °C dan 2,04°C gacha kamayadi va o‘rtacha mutlaq xato (MAE) 1,77 °C dan 1,62 °C gacha kamayadi. Korrelyatsiya koeffitsienti (R) 0,87 da barqarorligicha qolmoqda. Ushbu statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, noaniqlikni to‘g‘irlash modellashtirilgan haroratni xatolar va noto‘g‘rilikni kamaytirish orqali kuzatilgan qiymatlarga yaqinroq moslashtiradi.

Yuqori o‘ng panelda yuqori emissiya kelajagini ifodalovchi SSP5-8.5 stsenariysi uchun harorat ma’lumotlari ko’rsatilgan. Yo‘nalishni to‘g‘irlagandan so‘ng, o‘rtacha moyillik 1,87 °C dan 0,00 °C gacha kamayadi. RMSE 3,07 °C dan 2,43 °C gacha, MAE 2,53 ° C dan 1,91 °C gacha kamayadi. Korrelyatsiya koeffitsienti 0,83 da doimiy bo‘lib qoladi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, noto‘g‘ri chiziqni tuzatish, hatto ekstremal emissiya senariysi ostida ham modellashtirilgan va kuzatilgan haroratlarni moslashtirishni yaxshilaydi.



3- rasm. ikki xil CMIP6 iqlim senariysi bo‘yicha harorat yoki yog‘ingarchilik ma’lumotlari to‘g‘rilangan: SSP1-2,6 (yuqori chap va pastki chap) va SSP5-8,5 (yuqori o‘ng va pastki o‘ng).

Keyingi 30 yilda, temperatura 1.8 °C ga ko‘tarilishi qayt etildgan. Bu ko‘rsatgich yiliga 0.06 °C bo‘lishi bashorat qilingan. Yaqin 30 yilda, Hisorak suv ombori havzasida yog‘ingarchilik miqdori 176.6 mm pasayishi bashorat qilingan, va yiliga o‘rtacha 6.1 mm pasayish kuzatiladi (4-rasm).



4-rasm. CMIP6 SSP1-2.6 senariysi: temperatura va yog‘ingarchilik

Dissertatsiyaning “**Daryo havzasidagi iqlim o‘zgarishini suv omborning gidravlik va gidrologik rejimiga ta’sirini SWAT model orqali baholash**” mavzusidagi uchinchi bobida iqlim o‘zgarishining suv omborlarning gidravlik va gidrologik rejimlariga ta’siri SWAT modeli orqali baholandi. Tadqiqot davomida SWAT modeli tadqiqot natijalari aniqligi va ishonchliligini oshirish maqsadida turli xil statistik ko‘rsatgichlardan foydalanildi va ularni tahlili olib borildi. Tadqiqot davomida SWAT modeli natijalarining aniqligi va ishonchliligini oshirish maqsadida turli statistik ko‘rsatkichlar qo‘llanildi va tahlil qilindi. SWAT modeli tomonidan simulyatsiya qilingan gidrologik sikl suv balansi tenglamasiga asoslanadi:

$$SW_t = SW_0 + \sum_{i=1}^{t}\left(R_{day} - Q_{surf} - E_a - W_{seep} - Q_{gw}\right) \quad (1)$$

Bu yerda: **SWt** - tuproqdagi yakuniy suv miqdori, **SW0** -tuproqdagi boshlang‘ich suv miqdori, **t**-vaqt (kunlarda), **Rday**-kunlik yog‘ingarchilik miqdori, **Qsurf** - kunlik yuzaki oqim, **Ea**-kunlik evapotranspiratsiya (ET), **Wseep** kunlik infiltratsiya (chuqur qatlamlarga sizib kirish), **Qgw**- kunlik grunt suvlarining qaytish oqimi va barcha birliklar millimetr (mm)da berilgan.

Bundan tashqari, SWAT modelining natijalar sifati va ish faoliyatini baholash uchun bir nechta statistik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi, jumladan **NS (Nash-Sutcliffe samaradorlik koeffitsienti)**, **R² (aniqlik koeffitsienti)**, **p-faktor** va **r-**

faktor. Nash–Sutcliffe samaradorlik ko‘rsatkichi SWAT modelini kalibrlashda muhim ahamiyatga ega, chunki u modellashtirilgan gidrogrammaning kuzatilgan real ma’lumotlarga qanchalik mos kelishini bitta aniq raqam orqali ifodalaydi.

$$NS = 1 - \left[\frac{\sum_{i=1}^{n}\left(Q_{obs}(i) - Q_{sim}(i)\right)^2}{\sum_{i=1}^{n}(Q_{obs}(i) - \bar{Q}_{obs})^2}\right] \quad (2)$$

Aniqlik koeffitsienti (**R²**) SWAT modellashtirishida modellashtirilgan oqim miqdorining kuzatilgan qiymatlarga naqsh va bog‘liqlik kuchi jihatidan qanchalik mos kelishini baholash uchun qo‘llaniladi. U kuzatilgan ma’lumotlardagi dispersiyaning qanchalik qismi model natijalari orqali tushuntirilishini ifodalaydi.

$$R^2 = \frac{\left[\sum_{i=1}^{n}(Q_{\text{obs}}(i) - \bar{Q}_{\text{obs}})(Q_{\text{sim}}(i) - \bar{Q}_{\text{sim}})\right]^2}{\sum_{i=1}^{n}(Q_{\text{obs}}(i) - \bar{Q}_{\text{obs}})^2 \sum_{i=1}^{n}(Q_{\text{sim}}(i) - \bar{Q}_{\text{sim}})^2} \quad (3)$$

Yana bir ko‘rsatkich **p-faktor**, SWAT modellashtirishida modelning noaniqlik diapazoni kuzatilgan ma’lumotlarni qanchalik yaxshi qamrab olishini baholash uchun qo‘llaniladi. U kalibrlash jarayonida hosil bo‘lgan 95% bashorat noaniqligi oralig‘iga tushgan kuzatilgan oqim qiymatlarining ulushini ko‘rsatadi.

$$\text{p} - \text{factor} = \frac{\sum_{i=1}^{N} I(O_t \in [L_t,\ U_t])}{N} \quad (4)$$

r-faktor SWAT modellashtirishida 95% bashorat noaniqligi oralig‘ining kengligini kuzatilgan ma’lumotlar o‘zgaruvchanligiga nisbatan baholash uchun qo‘llaniladi. Aniqrog‘i, bu ko‘rsatkich ushbu noaniqlik diapazonining o‘rtacha qalinligini kuzatilgan oqim miqdorining standart og‘ishiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

$$\text{r} - \text{factor} = \frac{\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}[\text{U}_{95}(t) - \text{L}_{95}(t)]}{\sigma_{\text{obs}}} \quad (5)$$

Chap panelda, suv sarfi ma’lumotlari 1986 yildan 2000 yilgacha bo‘lgan yillar bo‘yicha chizilgan bo‘lib, sekundiga kubometr (m³/s) bilan o‘lchangan. Yashil chiziq kuzatilgan ma’lumotlarni, qizil chiziq esa SWAT modeli simulyatsiyasini ifodalaydi. Ikki chiziq butun davr davomida bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, kuzatilgan va modellashtirilgan ma’lumotlar o‘rtasidagi mustahkam kelishuvdan dalolat beradi. Ikkala ma’lumot to‘plami ham sezilarli yillar oralig’ida o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatadi, ma’lum yillarda (masalan, taxminan 1987 va 1996 yillarda) oqim eng yuqori darajaga etadi va boshqalarida (masalan, 1998 va 2000 yillarda) kamayadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, SWAT modeli daryo oqimining vaqtinchalik tendentsiyalarini samarali tarzda qamrab oladi.

O‘ng panelda tarqalish sxemasi kuzatilgan razryadni (x o‘qi) va simulyatsiya qilingan oqimni (y o‘qi) taqqoslaydi. Qizil chiziq chiziqli regressiya chizig‘ini tenglama bilan ifodalaydi y=0,8061x+58,04. Unga ko‘ra, R^2 0.86 qiymati kuzatilgan

va simulyatsiya qilingan ma’lumotlar o‘rtasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatadi. 95% ishonch oralig‘i (qattiq yashil chiziqlar) va 95% bashorat qilish oralig‘i (chiziqli yashil chiziqlar) regressiya chizig‘i atrofidagi o‘zgaruvchanlik oralig‘ini ko‘rsatadi. Ma’lumotlar nuqtalari ishonch va bashorat oraliqlari ichida joylashgan bo‘lib, bu modelning aniqligini yanada tasdiqlaydi (rasm 7). Natijalarga ko‘ra SSP1-2.6. senariysida 17.7% kamaygan, SSP5-8.5 senariysida esa bu ko‘rsatgich 28.5% ko‘rsatgichni qayt etgan (Rasm 8,9).



7-rasm. Uzgidromet va SWAT model ma’lumotlari tahlili



Rasm 8. SSP1-2.6. senariysi kesimida suv hajmini o‘zgarishi



Rasm 9. SSP5-8.5 senariysi kesimida suv hajmini o‘zgarishi

10-rasmda Hisor suv omborida ikkita iqlim ssenariysi SSP1-2.6 (past emissiya) va SSP5-8.5 (yuqori emissiya) sharoitida bashorat qilingan suv sathining o‘zgarishi SWAT modeli asosida baholangan. SSP1-2.6 senariysi bo‘yicha suv sathi yil davomida nisbatan yuqori va barqaror (1100-1120 m) bo‘lib, iyul oyida eng yuqori nuqtaga yetadi va mavsumiy o‘zgarishlar unchalik sezilmaydi, bu esa yetarli yog‘ingarchilik va oqim mavjudligini ko‘rsatadi. Aksincha, SSP5-8.5 ssenariysi ostida umumiy suv sathi pastroq (1060-1090 m) bo‘lib, ayniqsa yoz oxirida keskin pasayish va katta mavsumiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Buning sababi sifatida bug‘lanishning ortishi, qor suvlarining kamayishi va oqimning buzilishi ko‘rsatilmoqda. Bu holat, ayniqsa, yoz oxiri va kuzda suv tanqisligi xavfining ortishini anglatadi. Natijalar kelajakdagi xavflarni kamaytirish uchun iqlimga chidamli suv resurslarini boshqarish strategiyalarining muhimligini ta’kidlaydi (Rasm 10).

Rasmda Hisorak suv omborida SSP1-2.6 va SSP5-8.5 iqlim ssenariylari sharoitida suv sathi va suv olish (iste’mol)ning mavsumiy o‘zgarishlari, shuningdek, amaldagi va tavsiya etilgan suv olish miqdorlari bilan taqqoslangan holati ko‘rsatilgan. Bahor oylarida sug‘orish ehtiyoji oshgani sari suv olish miqdori bosqichma-bosqich ortadi, shu bilan birga suv omboridagi sath har ikkala ssenariyda ham barqaror va yetarli bo‘lib qoladi. Yoz boshida suv sathi maksimal darajaga yetadi va iyun oyida suv olish eng yuqori nuqtaga chiqadi. Biroq, avgust oyiga kelib, suv olish keskin kamayadi va taxminan 1045 metrga tushib ketadi, bu esa tavsiya etilgan va prognoz qilingan suv sathlaridan past bo‘lib, ortiqcha foydalanish, oqimning kamayishi va SSP5-8.5 ssenariysi sharoitida kuchaygan bug‘lanish natijasida sezilarli darajada kamayishni anglatadi. Kuz faslida esa suv olish miqdori asta-sekin tiklanadi, chunki sug‘orish ehtiyoji pasayadi va suv sathi bosqichma-bosqich ko‘tariladi. Qishda suv olish eng past darajada bo‘lib, bu davr suv omborining keyingi mavsumga tayyorlanishi uchun tabiiy tiklanish bosqichi sifatida

xizmat qiladi. E’tiborga molik jihati shundaki, tavsiya etilgan suv olish chizig‘i yil davomida SSP5-8.5 sathidan doimiy ravishda past bo‘lib, bu usul yanada optimallashtirilgan va barqaror suv olish strategiyasini aks ettiradi. Ushbu rejimga rioya qilish, ayniqsa, yoz oxiridagi tanqislikning oldini olishda foydali bo‘lib, hozirgi va kelajakdagi iqlim sharoitida suv xavfsizligini ta’minlashda amaliy yechim sifatida xizmat qiladi (Rasm 11).



Rasm 10. Hisorak suv omborida CMIP6 SSP1-2.6 va CMIP6 SSP5-8.5 senariylari bo‘yicha suv sathining o‘zgarishi



Rasm 11. Hisorak suv ombori uchun vegetatsiya davrlarida sug‘orish rejimi

Dissertatsiyaning “**Iqlim o‘zgarishining suv omboriga ta’sirini baholash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish**” mavzusidagi to‘rtinchi bobida iqlim o‘zgaruvchanligi va uzoq muddatli iqlim o‘zgarishi sharoitida Hisorak suv omborini barqaror boshqarish muammolari va imkoniyatlari yoritilgan. SWAT modelini

xatolari tuzatilgan CMIP6 prognozlari (SSP1-2.6 va SSP5-8.5) bilan qo‘llash orqali tadqiqot yillik suv oqimining kamayishi, suv omborlari sathining mavsumiy siljishi va ekstremal gidrologik hodisalar xavfining ortishi haqida aniq dalillarni aniqlashga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori emissiya senariylarida suv hajmini 28,5% gacha qisqarishini ko‘rsatadi, bunda sezilarli mavsumiy tebranishlar, masalan, og‘ir holatlarda yozda sathining 1060 m dan pastga tushishi bashorat qilingan. Ko‘pgina hollarda, menejerlar suv omborlari sathining 1065 m yoki 1070 m kabi chegaralardan pastga tushishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun iyun va iyul oylarida eng yuqori oylik sug‘orishni 10-15% ga kamaytirishlari tavsiya qilinad, bu o‘z o‘rnida avgust va sentyabrgacha barqaror suv ta’minotini saqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra bug‘lanish va cho‘kindi muammolarini kamaytirish uchun real vaqt rejimida gidrologik monitoring, erta ogohlantirish tizimlari va infratuzilmani yangilash kabi moslashuvchan va ma’lumotlarga asoslangan strategiyalar zarurligini ta’kidlaydi. Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanishga alohida e’tibor qaratilib, sug‘orish samaradorligini oshirish, qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni ko‘paytirish, ekish jadvallarini yangi gidrologik o‘zgarishga moslashtirish tavsiya qilinadi.

XULOSALAR

Ushbu dissertatsiya doirasida Hisorak suv omborida olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Hisorak suv ombori iqlim o‘zgarishi tufayli gidrologik rejimida sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Yog‘ingarchilikning kamayishi, haroratning ko‘tarilishi va oqim hajmlarini (Oqsuv daryosi) o‘zgarishi 1990 yildan 2020 yilgacha suv oqimining barqaror pasayishiga olib keldi.

2. CMIP6 senariylariga (SSP1-2.6 va SSP5-8.5) xatolari to‘g‘irlashni qo‘llash iqlim prognozlarining ishonchliligini sezilarli darajada oshirdi. Yuqori emissiya yo‘lida (SSP5-8,5) noaniqlikni tuzatish ayniqsa samarali bo‘lib, RMSE va MAEni pasaytirdi, shu bilan birga bo‘g‘liqlik ko‘rsatgichi (korrelyatsiya)ni 0,67 dan 0,87 gacha ko‘tarildi va shu bilan iqlim ma’lumotlarini aniqligi va muvofiqligi oshirildi.

3. Model simulyatsiyalari 2024-2053 yillarda SSP5-8.5 bo‘yicha suv mavjudligi taxminan 28.5% va SSP1-2.6 bo‘yicha 17.7% ga kamayishini prognoz qildi. Ushbu qisqartirishlar kelajakdagi suv resurslarida sezilarli cheklovlarni ko‘rsatadi, qishloq xo‘jaligi, sanoat va maishiy foydalanuvchilar o‘rtasida raqobatni kuchaytiradi.

4. Suv omborlari sathining mavsumiy tebranishlari SSP5-8,5 doirasida kuchayishi kutilmoqda, yozgi eng yuqori ko‘rsatgich avgust oyining oxiri-sentyabr oylarida 1060 m dan pastga tushishi mumkinligi aniqlangan. SSP1-2.6 ostida

tebranishlar kamroq jiddiy bo‘lib, yoz o‘rtalarida suv sathi 1070 m ga yaqin barqarorlashadi.

5. Tadqiqot shuni ta’kidlaydiki, iyun-iyul oylarida sug‘orishning eng yuqori talabini 10-15% ga mo‘tadillashtirish suv havzalarining muhim darajasini (masalan, 1065-1070 m dan yuqori) saqlashga yordam berishi mumkin. Ushbu chora yoz oxirida suv ta’minoti barqarorligini ta’minlaydi va jiddiy suv tanqislik xavfini kamaytiradi.

6. SSP5-8.5 bo‘yicha prognozlar uzoq davom etadigan qurg‘oqchilik va kuchli suv toshqini xavfi ortib borayotganini ta’kidlaydi. Yuqori aniqlikdagi gidrologik va meteorologik monitoring tizimlari suv toshqinlarini bashorat qilishni yaxshilash uchun zarur bo’lib, suv toshqinlari xavfini yumshatish uchun suv havzalaridan suv chiqarishni oldini olish va nazorat qilish imkonini beradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.T.10.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ «ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»

УЗБЕКОВ УМИДХОН УЛУГБЕК УГЛИ

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА НА ГИДРАВЛИЧЕСКИЙ И ГИДРОЛОГИЧЕСКИЙ РЕЖИМ ВОДОХРАНИЛИЩ

05.09.07-Гидравлика и инженерная гидрология

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/T148.

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.tiiame.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyonet.uz

Научный консультант:	**Акмалов Шамшодбек Бахтиёрович** Доктор философии по техническим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	**Икрамова Малика Рахимбердиевна** доктор технических наук, профессор
	Герц Жасмина Викторовна Доктор философии по техническим наукам, доцент
Ведущая организация:	**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2025 г. _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.10.02 при Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» по адресу: 100000, г.Ташкент, ул. Кары Ниязий, 39. Тел/Факс:. (+99871)-237-46-68, e-mail: admin@tiiame.uz.

С диссертацией (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (регистрационный номер ____). Адрес 100000, г. Ташкент, Кары Ниязий, 39. Тел. (+99871)-237-19-45, e-mail: admin@tiiame.uz

Автореферат диссертации разослан « ____» _____ 2025 г.

(реестр протокола рассылки № ____ от « ____» _____ 2025 г.)

А.Т.Салохитдинов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Ф.А.Гаппаров
Учёный секретарь Научного совета по присуждениюучёных степеней, д.т.н., профессор

А.М.Арифжанов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Цель исследования. Целью исследования является оценка влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ.

Задачи исследования:

Аналитический анализ научных работ, проведенных для оценки влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ;

Коррекция смещения и анализ данных климатической модели (Coupled Model Intercomparison Project 6 (CMIP6));

Оценка влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ с использованием модели SWAT;

Разработка рекомендаций по оценке влияния изменения климата на водохранилище.

Область исследования. Гисоракское водохранилище, Шахрисабзский район, Кашкадарьинская область

Предметом исследования являются изменения характера осадков, повышение температуры и изменение режимов расхода воды, включая изменения расхода воды, уровней воды, скорости испарения и общего водного баланса.

Методы исследования. В исследовании использовались трендовый анализ существующих данных, коррекция смещения, калибровка и валидация данных климатической модели, а также гидравлическое и гидрологическое моделирование (с помощью модели SWAT).

Научная новизна исследования:

• Разработано программное обеспечение для повышения точности и коррекции смещения данных климатической модели с использованием алгоритмов машинного обучения;

• Прогностические данные сценариев глобального изменения климата CMIP6 (SSP1-2.6 и SSP5-8.5) впервые были адаптированы для бассейна реки Аксув с использованием метода коррекции статистического смещения;

• Разработаны климатические сценарии (SSP1-2.6 и SSP5-8.5) для оценки влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режимы водохранилища;

• Режим работы Хисоракского водохранилища разработан на основе усовершенствованной модели SWAT для различных периодов водности.

Практические результаты исследования

Разработана программа для исправления ошибок в данных климатической модели (коррекция смещения);

Разработана гидрологическая модель на языке программирования Python для оценки влияния изменения климата на водные ресурсы;

Усовершенствован метод оценки влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ;

Надежность результатов исследования. Достоверность результатов исследований объясняется тем, что разработка теоретических решений базируется на общепринятых гидравлических законах и методах моделирования, полученные результаты практически анализируются с использованием статистических показателей, а результаты обладают высокой достоверностью и сопоставлены и проверены с данными, полученными другими учеными.

Научная и практическая значимость результатов исследований. Научная значимость результатов исследований заключается в том, что повышена точность анализа изменения климата в водохранилищах за счет разработки программного обеспечения для коррекции смещения данных климатической модели на языке программирования Python.

Также с учетом изменчивости климата улучшены параметры модели SWAT, необходимые для оценки влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ.

Практическая значимость результатов исследований объясняется тем, что моделирование влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ позволит более эффективно управлять водохранилищами за счет прогнозирования будущих расходов воды в водохранилищах, изменения уровней воды в водохранилищах, периодов высокого и низкого уровня воды.

Внедрение результатов исследований. В рамках исследования проведены модельные работы по оценке влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ. При этом в основном использовались данные климатической модели для учета будущих изменений климата. По результатам:

Метод оценки влияния изменения климата на гидравлический и гидрологический режим водохранилищ принят к использованию на водохранилищах, находящихся в ведении Кашкадарьинского областного управления по использованию водохранилищ и Гисаракского водохранилища АО «Узбекэнерго». Применение результатов диссертационной работы в практике водохозяйственной деятельности позволит улучшить

гидрологический режим водохранилищ, повысить точность расчета элементов водного баланса, эффективно наполнять и опорожнять водохранилища, экономя более 10% водных ресурсов по сравнению с водой, которая тратится и забирается из источника.

Апробация результатов исследования. Результаты данного исследования обсуждались на 3 международных и 2 республиканских научно-практических конференциях.

Опубликование результатов исследования. 9 публикаций по диссертациям. 9 публикаций в научных изданиях, рекомендованных для публикации основных научных результатов докторских диссертаций Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан, в том числе в 5 республиканских и 2 зарубежных журналах, получено 2 авторских свидетельства.

Структура и объем диссертации. Диссертация состоит из введения, четырех глав, заключения, списка литературы и приложений.

LIST OF PUBLISHED WORKS
E'LON QILINGAN ILMIY ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ

I part (I bo'lim, I часть)

1. Uzbekov U., Arifjanov A., Samiev L. "Simulation of hydraulic and hydrological regimes of Hisarak reservoir for irrigation optimization". "Agro Ilm" journal. Tashkent 2025., Special issue, № 7(116), 119-121 p. (05.00.00; №3).
2. Uzbekov U., Arifjanov A., Akmalov Sh., Samiev L. "Parameter optimisation of swat model:a case study of Hisarak reservoir". Ecology bulletin. Tashkent 2025., № 2(15), 102-107 p. (11.00.00; № 3).
3. Rakhimov Q., Gapparov F., Haydarov A., Uzbekov U. (2024). Changes in the reliability of seasonal control reservoirs for resource management. In ICTEA: International Conference on Thermal Engineering (Vol. 1, No. 1), 2025.

II part (II bo'lim, II часть)

4. Uzbekov U., Arifjanov A., Akmalov Sh. "Temporal dynamics of precipitation variation in the Shahrisabz district during 2000-2020". Ecology bulletin. Tashkent 2024., № 1(9), 56-59 p. (11.00.00; № 3).
5. Uzbekov U., Arifjanov A., Akmalov Sh., Samiev L., Ungalov A. (2023) "Temporal trends in temperature and precipitation variability in the Kashkadarya district: a three-decade analysis". Ecology bulletin. Tashkent 2023., № 2, 44-49 p. (11.00.00; № 3).
6. Uzbekov U., Arifjanov A., Samiev L. (2022). "Why hydrological modelling: SWOT analysis". "Sustainable Agriculture" journal. Tashkent 2022., № 3(15), 39-41 p. (05.00.00; №35).
7. Uzbekov U., Arifjanov A., Ergashev O., F.Khamroyev, I.Bekkulov, Y.Karimov, J.Ismatov. "Climate risk assessment in Uzbekistan: surface air temperature anomaly for 2080-2099". In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03008). EDP Sciences 2025. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303008.
8. O'zbekov U., Pulatov B., Xasanov S., Buriyev S., Ergashev O., Bektashev B. "Python yordamida gidrologik modellashtirish orqali iqlim o'zgarishining daryo oqimiga ta'siri baholash dasturiy ta'minoti". O'zbekiston Republikasi Adliya vazirligi. Guvohnoma № DGU 28883. 02.11.2023 y.
9. O'zbekov U., Arifjanov A., Akmalov Sh., Samiyev L. "Python dastur yordamida gidrologik model ma'lumotlarini kalibratsiya va validatsiya qilish dasturiy ta'minoti". O'zbekiston Republikasi Adliya vazirligi. Guvohnoma № DGU 42167. 23.08.2024 y.

Avtoreferat “O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali tahririyatida tahrirdan o‘tkazildi va ingliz, o‘zbek, rus tillaridagi matnlari mosligi tekshirildi (14.06.2025 y.).

Bosishga ruxsat etildi: 27.09.2025-yil.
Bichimi 60x84 1/16 , “Times New Roman”
garniturada raqamli bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 2.5. Adadi: 100. Buyurtma: № 109.
Tel (99) 817 44 54.
Guvohnoma reyestr № 219951
“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyotida bosildi.
Toshkent sh., Uchtepa tumani, Ali qushchi ko‘chasi, 2A-uy.